



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 8

## JADIDLAR G‘OYALARI YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI POYDEVORI

**Yusupova Laylo**

Guliston davlat universiteti Psixologiya  
va ijtimoiy fanlar fakulteti  
4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadid g‘oyalarining Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati, Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida Prezidentimizning Yangi O‘zbekiston mafkuraviy qarashlari mezonlari xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar** – jadid, ma’rifatparvarlik, axloq, «Ertaga kech bo‘ladi», “Tilda, fikrda, ishda birlik”, “Tarixning noma’lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbanlari”, “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi.

Jadid ma’rifatparvarlarning bizgacha yetib kelgan tarixiy asarlarida tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatli ma’lumotlar yozilgan. Ularni tahlil qilish va hayotga tatbiq qilish inson ma’naviy barkamolligini ta’minlashda zarur ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”[1]. Prezidentimiz Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida O‘zbekiston mafkuraviy sohada raqobatga tayyormi, degan savolni berdi. Uning aytishicha, mamlakat madaniy diplomatiyani kuchaytiradi. Shuningdek, o‘zbek xalqi jadidlar ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerakligi ta’kidlandi. Darxaqiqat, Jadidlar strategiyasini asosiy jihatlari taraqqiyotga xizmat qiladi. Prezidentimiz Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida ushbu kengashga o‘zi raislik qilayotganini, hududlarda esa bu sohaga birinchi rahbarlar mas’ul ekanini, chunki «ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat ustuvor masala» ekanini eslatdi. Abdulla Avloniyning xotin-qizlarni ilm olishiga, kasb-hunar o‘rganishiga targ‘ib qilib yozgan she’rlari bilan bir qatorda bu masalada tanqidiy qarashlarini keltirish joiz: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi pahmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” der [2 ]. Davlat rahbari iqtisodiy inqiroz va pandemiyaning global miqyosdagi ta’siriga qaramay, mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kengaytirish borasida katta sa’y-harakatlar va ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Muhtaram Prezidentimiz «Ertaga kech



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 8

bo‘ladi» degan savol bilan yuzlandi: «Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi?» bugungi kunda , ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba’zan hatto mamlakatning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarga zid pozisiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li jamiyatda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyyotkorlik va ogohlilikni oshirish lozim, dedi u. Shuningdek, O‘zbekiston o‘zbek madaniy diplomatiyasini jahon miqyosida rivojlantirish, aholi va sayyoohlarni mamlakatning boy madaniy merosi bilan keng tanishtirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishini ta’kidladi[3]. «Ma’ rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy», — dedi Shavkat Mirziyoyev. «Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergen yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir», — dedi u. Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir. O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyatparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani ega. Barchamizga ayonki degan ezgu g‘oya bilan



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



**Volume: 2 Issue: 8**

maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar [4]. Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar[5]. Afsuski, o‘sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga yo‘l bermadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir. Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda. Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31 avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda. Bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, “Tarixning noma’lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbanlari” nomli ko‘p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvalar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotir a kechalari, seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda. Atoqli ma’rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlangani tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi. Ayni vaqtida, yurtimizda har yili avgust oyini “Qatag‘on qurbanlarini yod



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 8

etish oyi” sifatida o’tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o’rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e’tibor ko’rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Mahalla idoralarida “Qatag‘on qurbanlari xotirasi burchaklari” va “Mahalla xotira kitoblari”ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag‘on qurbanlari hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to‘plam tayyorlash rejalashtirilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Mirziyoyev Sh.M. “Mamlakatimizdagи boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil 21 dekabr.
- Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq // Tanlangan asarlar. 37-bet.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdantakomillashtirish chora-tadbirlari” PQ-92-sonli 2022.01.19. <https://lex.uz/docs/5831865>
- Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T: “O‘zbekiston”, 2017.- B.14.
- I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlikshartlari va taraqqiyot kafolatlari. -: “O‘zbekiston”, 1997.-B. 173-174.
- Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
- Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
- Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.
- Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
- Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (2), 1-5.
- Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominate Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
- Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 8

76-82).

13. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapning Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
14. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).
15. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. Miasto Przyszłości, 50, 548-553.
16. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnalı, 5(56), 380-383.
17. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 205-207)
18. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqlıknıng Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlılı (O'zbekiston Respublikası Birinchı Prezidentı Ia Karimov Nutqları Asosida). In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
19. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
20. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.